


2022- yilning yanvar-iyunida Xorazm viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyunida Xorazm viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rnlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 13 368,8 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-iyuni bilan taqqoslaganda 6,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 114,5 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Xorazm viloyatining qo'shgan hissasi 3,4 % ga yetdi.




**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**

	<i>Mird. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2021- yil</i>	<i>2022- yil</i>	
I. YAHM, jami	11 000,0	13 368,8	106,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 607,9	12 907,3	105,7
mahsulotlarga sof soliqlar	392,1	461,5	116,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	10 607,9	12 907,3	105,7
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	4 236,7	4 990,5	103,4
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	2 120,1	2 906,8	111,9
sanoat	1 377,1	2 023,4	115,4
qurilish	743,0	883,4	105,3
xizmatlar	4 251,1	5 010,0	105,1
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	639,4	774,8	108,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	666,3	798,7	114,0
boshqa xizmat tarmoqlari	2 945,4	3 436,5	102,4

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 925,4 ming soʻnni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 4,4 % ga yuqoridir.

2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va oʼsish surʼatlari





Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qoʼshilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiyligi YAHMning 96,5 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,5 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, oʼrmon va baliqchilik xoʼjaligining YAHMning tarmoqlar boʼyicha tarkibidagi ulushi 38,7 % ni, sanoat tarmogʼi 15,7 % ni, qurilish 6,8 % ni va xizmatlar sohasi 38,8 % ni tashkil qildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha
YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**

	2021- yil	2022- yil
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	96,4	96,5
mahsulotlarga sof soliqlar	3,6	3,5
II. Tarmoqlarning yalpi qo’shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi	39,9	38,7
sanoat (qurilishni qo’shgan holda)	20,0	22,5
sanoat	13,0	15,7
qurilish	7,0	6,8
xizmatlar	40,1	38,8
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	6,0	6,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	6,3	6,2
boshqa xizmat tarmoqlari	27,8	26,6

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)**



 **Yalpi qo'shilgan qiymat**

 **Mahsulotlarga soʻf soliqlar**


YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobil o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – (38,7 %), sanoatda – 115,4 % (15,7 %), qurilishda – 105,3 % (6,8 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % ni (38,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 108,0 % (6,0 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,0 % (6,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,4 % dan (26,6 %) iborat bo'ldi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,3 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,9 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,9 f.p.) va qurilish tarmog'i – 0,4 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,6 f.p.), xizmat ko'rsatish sohasi – 1,9 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 3,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,6 f.p. (2021- yilning yanvar-iyunida – 0,1 f.p.)ga ko'paydi

2022- yilning yanvar-iyunida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2022- yilning yanvar-iyunida YAHM deflyatori indeksi 2021- yilning yanvar-iyunidagi narxlarga nisbatan 114,5 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 127,3 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida – 114,0 % qayd etildi.

**2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)**



2021-2022- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik biznesning YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan %da)

2022- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi 68,8 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar-iyunida – 72,1 %).

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

